

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Kulboyeva Nargiz Majitovna

TDIU Bank ishi kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0001-3107-9722

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonining nazariy-uslubiy asoslari va amaliy holati tadqiq etilgan. 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar – davlat ulushini qisqartirish, raqobat muhitini kuchaytirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va prudensial barqarorlikni mustahkamlash yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlari asosida baholangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2021 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvargacha bo‘lgan davrda bank tizimi aktivlari 366,1 trln so‘mdan 925,0 trln so‘mgacha o‘sib, o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 20,4 foizni tashkil etgan, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 82,9 mln nafarga yetgan. Shu bilan birga, davlat ulushiga ega banklarning jami aktivlardagi hissasi 63,5 foiz darajasida saqlanib qolayotgani strategiyada belgilangan mo‘ljalga to‘liq erishilmaganini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijasida bank transformatsiyasi darajasini baholashning integral indeksi taklif etilgan hamda transformatsiya jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, bank transformatsiyasi, raqamli transformatsiya, xususiylashtirish, raqobat muhiti, konsentratsiya, masofaviy bank xizmatlari, prudensial barqarorlik, Bazel III, fintex.*

IMPROVING THE TRANSFORMATION PROCESS OF COMMERCIAL BANKS’ OPERATIONS

Kulboyeva Nargiz Majitovna

Independent Researcher,
Department of Banking,
Tashkent State University of Economics
ORCID: 0009-0001-3107-9722

Abstract. *The article examines the theoretical, methodological and practical aspects of the transformation of commercial banks in Uzbekistan. Changes implemented under the Banking System Reform Strategy for 2020–2025 – reducing the state share, strengthening competition, developing digital banking services and reinforcing prudential resilience – are assessed using data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the World Bank and the International Monetary Fund. Between 1 January 2021 and 1 January 2026, total banking assets grew from UZS 366.1 trillion to UZS 925.0 trillion, a compound annual growth rate of 20.4 percent, while the number of remote banking users reached 82.9 million. At the same time, the share of state-owned banks in total assets remains at 63.5 percent, indicating that the strategic target has not yet been fully achieved. The study proposes an integral index for assessing the level of bank transformation and develops practical recommendations for improving the transformation process.*

Keywords: *commercial banks, bank transformation, digital transformation, privatization, competition, concentration, remote banking services, prudential resilience, Basel III, fintech.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ТРАНСФОРМАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Кулбоева Наргиз Мажитовна

независимый соискатель
кафедры банковского дела
Ташкентского Государственного
Экономического Университета
ORCID: 0009-0001-3107-9722

Аннотация. *В статье исследованы теоретико-методологические основы и современное состояние процесса трансформации деятельности коммерческих банков Узбекистана. В рамках Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020–2025 годы на основе данных Центрального банка Республики Узбекистан, Всемирного банка и Международного валютного фонда проведена оценка изменений, осуществлённых по таким направлениям, как сокращение доли государственного участия, усиление конкурентной среды, развитие цифровых банковских услуг и укрепление пруденциальной устойчивости. По результатам анализа установлено, что за период с 1 января 2021 года по 1 января 2026 года совокупные активы банковской системы увеличились с 366,1 трлн сумов до 925,0 трлн сумов, при этом среднегодовой темп роста составил 20,4 процента, а количество пользователей дистанционных банковских услуг достигло 82,9 млн. Вместе с тем сохранение доли банков с государственным участием в совокупных активах банковской системы на уровне 63,5 процента свидетельствует о неполном достижении целевых показателей, предусмотренных стратегией. В результате исследования предложен интегральный индекс оценки уровня трансформации банков, а также разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию процесса трансформации банковской деятельности.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, банковская трансформация, цифровая трансформация, приватизация, конкурентная среда, концентрация, дистанционные банковские услуги, пруденциальная устойчивость, Базель III, финтех.*

Kirish.

So‘nggi o‘n yillikda jahon bank tizimi chuqur tarkibiy o‘zgarishlar bosqichini boshidan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, fintex kompaniyalari va yirik texnologik platformalarning moliyaviy xizmatlar bozoriga kirib kelishi, mijozlar xulq-atvorining o‘zgarishi hamda Bazel III talablari asosida prudensial nazoratning kuchayishi tijorat banklarini an’anaviy moliyaviy vositachilik modelidan mijozga yo‘naltirilgan, raqamli va platformali biznes-modellarga o‘tishga majbur etmoqda (Vives, 2019; King, 2018).

O‘zbekistonda bank tizimini tubdan isloh qilish jarayoni 2017 yildan boshlangan valyuta liberallashuvi bilan izchil tus oldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi»da bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 15 foizdan 60 foizga yetkazish, davlat ulushiga ega banklarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish hamda korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish vazifalari belgilangan edi.

Islohotlar natijasida bank tizimining ko‘lami sezilarli darajada kengaydi: 2017–2025 yillarda tizim aktivlari 167 trln so‘mdan 925 trln so‘mgacha, depozitlar 59,6 trln so‘mdan 417,2 trln so‘mgacha o‘sdi, bank aktivlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati 50 foizga yetdi (Markaziy bank ma’lumotlari asosida). 2026 yil 1 avgust holatiga ko‘ra esa bank tizimi aktivlari ilk bor 1 kvadrillion so‘mdan oshib, 1 016,6 trln so‘mni tashkil etdi.

Biroq miqdoriy o‘sish sifat jihatidan transformatsiya yakunlanganini anglatmaydi. Davlat banklarining ustunligi, kredit va depozit bazasi o‘rtasidagi nomutanosiblik, raqamli xizmatlardan foydalanishning faollik darajasi hamda salbiy iqtisodiy ssenariylardagi kapital yetarliligi bilan bog‘liq muammolar transformatsiya jarayonini ilmiy asosda baholash va takomillashtirishni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bank faoliyatini transformatsiyalash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda asosan ikki yo‘nalishda – mulkchilik tarkibidagi o‘zgarishlar va texnologik (raqamli) transformatsiya nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

La Porta, Lopez-de-Silanes va Shleifer (2002) 92 mamlakat ma’lumotlari asosida banklardagi davlat mulkchiligi ulushining yuqoriligi keyingi davrda moliyaviy tizimning sekinroq rivojlanishi va mehnat unumdorligining pastroq o‘sishi bilan bog‘liq ekanini aniqlagan. Berger, Hasan va Zhou (2009) Xitoy bank tizimi misolida davlat banklari eng kam samarali ekanini, xorijiy investorlarning minoritar ishtiroki esa bank samaradorligini sezilarli darajada oshirishini empirik jihatdan asoslagan. Ushbu tadqiqotlar davlat banklarini xususiylashtirishni transformatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi.

Texnologik transformatsiya bo‘yicha Philippon (2016) AQSHda moliyaviy vositachilikning birlik xarajati yuz yildan ortiq davr mobaynida deyarli pasaymaganini ko‘rsatib, fintex innovatsiyalari ushbu samarasizlikni bartaraf etish imkoniyatiga ega ekanini ta’kidlagan. Vives (2019) raqamli o‘zgarishlar banklar uchun ham tahdid, ham imkoniyat ekanini, raqobatning kuchayishi banklarni biznes-modellarini qayta ko‘rib chiqishga majbur etishini asoslagan. Thakor (2020) fintexning bank faoliyatiga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, raqamli kreditlash va to‘lov xizmatlarida an’anaviy banklar va yangi ishtirokchilar o‘rtasidagi raqobat va hamkorlik shakllarini tasniflagan.

Bazel bank nazorati qo‘mitasi (BCBS, 2018) fintex rivojlanishining bank sektoriga ta’siri bo‘yicha beshta ssenariyni ajratgan: «yaxshilangan bank», «yangi bank», «taqsimlangan bank», «ikkinchi darajaga tushirilgan bank» va «vositachilikdan mahrum bo‘lgan bank». Ushbu yondashuv transformatsiya jarayonida banklarning strategik tanlovi ularning bozordagi o‘rnini belgilashini ko‘rsatadi. Verhoef va boshqalar (2021) esa raqamli transformatsiyani uchta bosqich – raqamlashtirish (digitization), raqamli jarayonlar (digitalization) va raqamli transformatsiya (digital transformation) sifatida izohlab, oxirgi bosqichda biznes-modelning o‘zi o‘zgarishini ta’kidlagan.

O‘zbekiston bank tizimi bo‘yicha Malikova (2026) davlat banklarining aktivlardagi ulushi 2020 yildagi qariyb 85 foizdan 2025 yil oxirida 63,5 foizgacha, kreditlardagi ulushi esa 88 foizdan 67 foizgacha pasayganini qayd etib, tizimning kapital va likvidlik buferlari yetarli ekanini ko‘rsatgan. Jahon banki va XVJ tomonidan o‘tkazilgan moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP) doirasida esa davlat banklarining ustunligi va depozit bazasining nisbatan torligi asosiy tarkibiy muammolar sifatida baholangan (World Bank, 2025; IMF, 2025).

Adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan quyidagi ta’rif taklif etiladi: tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash – bankning mulkchilik va korporativ boshqaruv tuzilmasi, biznes-modeli, texnologik infratuzilmasi hamda risk-menejment tizimini mijoz ehtiyojlari, raqobat sharoiti va prudensial talablarga muvofiq kompleks va uzluksiz qayta shakllantirish jarayonidir. Mazkur ta’rif transformatsiyani faqat raqamlashtirish bilan cheklamasdan, uni mulkchilik, raqobat, texnologiya va barqarorlikni qamrab oluvchi tizimli jarayon sifatida talqin etadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, indeks usuli va trend ekstrapolyatsiyasi usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (tijorat banklarining konsolidatsiyalashgan balansi, asosiy ko‘rsatkichlar, masofaviy bank xizmatlari bo‘yicha ma’lumotlar), Moliyaviy barqarorlik sharhi, shuningdek, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Osiyo taraqqiyot bankining hisobotlari tashkil etdi.

Tadqiqot ikkilamchi rasmiy statistik ma’lumotlarga asoslangan. Turli manbalarda ko‘rsatkichlar turli sanalar va ta’riflar bo‘yicha e’lon qilingani sababli, har bir jadval va rasmda ma’lumot sanasi hamda manbasi alohida ko‘rsatildi.

Tahlil va natijalar

Transformatsiya jarayonining dastlabki natijasi bank tizimi ko‘lamining jadal kengayishida namoyon bo‘lmoqda. 1-rasmda keltirilganidek, 2021 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvargacha bo‘lgan besh yil davomida bank tizimi aktivlari 2,5 baravarga oshgan.



1-rasm. O‘zbekiston bank tizimi jami aktivlarining dinamikasi, trln so‘m

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari (2021–2026) asosida muallif tomonidan tuzildi. 01.01.2026 – 2025 yil yakuni bo‘yicha.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur davrda aktivlarning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati CAGR = (925,0 / 366,1)^(1/5) – 1 ≈ 20,4 foizni tashkil etdi. 2026 yil 1 avgust holatiga aktivlar 1 016,6 trln so‘mga yetib, yillik o‘sish 19,3 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich nominal YaIM o‘sishidan yuqori bo‘lib, iqtisodiyotning moliyaviy chuqurlashuvi davom etayotganini ko‘rsatadi.

Bank tizimining resurs bazasi va kredit faoliyatidagi o‘zgarishlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tijorat banklari konsolidatsiyalashgan balansining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	01.03.2025, trln so‘m	01.03.2026, trln so‘m	O‘zgarish, %	O‘zgarish, trln so‘m
Jami aktivlar	780,2	932,3	+19,5	+152,1
Kreditlar (sof)	519,9	595,8	+14,6	+75,9
Depozitlar	319,4	421,9	+32,1	+102,5
Jami kapital	117,4	138,4	+17,8	+20,9
Kreditlar / depozitlar nisbati, %	162,8	141,2	–21,6 f.p.	–
Kapital / aktivlar nisbati, %	15,0	14,8	–0,2 f.p.	–

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, «Tijorat banklarining konsolidatsiyalashgan balansi» ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi bir yilda depozitlar o‘sishi (32,1 %) kreditlar o‘sishidan (14,6 %) ikki baravardan ko‘proq yuqori bo‘lgan. Natijada kreditlarning depozitlarga nisbati 162,8 foizdan 141,2 foizgacha pasaygan. Bu holat banklarning resurs bazasida ichki jamg‘armalar hissasi ortayotganini anglatadi. XVJ ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil oxirida depozitlar banklar moliyalashtirish manbalarining atigi 40 foizini tashkil etgan edi (IMF, 2025). Shu nuqtai nazardan, resurs bazasining tashqi qarzlar va davlat resurslaridan depozitlarga qarab siljishi transformatsiyaning ijobiy yo‘nalishi hisoblanadi.

2-jadval

Bank tizimida mulkchilik tarkibi va konsentratsiya ko‘rsatkichlari


Ko‘rsatkichlar	Oldingi davr	Keyingi davr	O‘zgarish
Davlat banklarining aktivlardagi ulushi, %	68,0 (01.01.2024)	63,5 (2025 yakuni)	–4,5 f.p.
Davlat banklarining kreditlardagi ulushi, %	88,0 (2020)	66,1 (06.2026)	–21,9 f.p.
Davlat banklarining kapitaldagi ulushi, %	–	58,7 (01.06.2026)	–
Xususiy va xorijiy kapitalli banklarning aktivlardagi ulushi, %	32,5 (01.02.2024)	34,5 (01.02.2025)	+2,0 f.p.
Xususiy banklarning depozitlardagi ulushi, %	49,0 (01.01.2024)	50,0 (01.01.2025)	+1,0 f.p.
HHI – aktivlar bo‘yicha	872	800	–72
HHI – kreditlar bo‘yicha	975	918	–57
HHI – depozitlar bo‘yicha	668	636	–32

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki; Malikova (2026); ITSM ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. HHI ko‘rsatkichlari 01.02.2024 va 01.02.2025 holatiga.

2-jadval ma’lumotlari bank bozorida raqobat muhiti asta-sekin yaxshilanayotganini ko‘rsatadi. Aktivlar bo‘yicha HHI qiymati 872 dan 800 gacha pasayib, past konsentratsiyali bozor oralig‘ida qolmoqda. Biroq bu ko‘rsatkich to‘liq manzarani aks ettirmaydi: uchta eng yirik davlat banki bozorning katta qismini egallab turibdi, xususan, O‘zmilliybankning aktivlardagi ulushi 17,5 foizni tashkil etadi. Demak, raqobat muhitining yaxshilanishi asosan Anorbank, TBC Bank, Hamkorbank kabi xususiy va raqamli banklarning jadal o‘sishi hisobiga yuz bermoqda.

Davlat ulushining pasayish sur’atlarini baholash uchun trend tahlilini amalga oshiramiz. 2020–2025 yillarda o‘rtacha pasayish sur’ati yiliga 4,3 foiz punktni tashkil etgan bo‘lsa, 2024–2025 yillarda bu sur’at yiliga 2,25 foiz punktgacha sekinlashgan. Agar joriy sur’at saqlanib qolsa, davlat ulushini 40 foizgacha qisqartirish taxminan 2035–2036 yillarga, 2020–2025 yillardagi o‘rtacha sur’atda esa 2030–2031 yillarga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bu xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish zaruratini asoslaydi.

Tijorat banklari transformatsiyasining eng jadal kechayotgan yo‘nalishi raqamli bank xizmatlari hisoblanadi. 3-rasmda masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari sonining dinamikasi keltirilgan.



3-rasm. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni, mln

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, «Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni» statistikasi; Daryo, Trend (Markaziy bankka tayanib) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari soni 2017 yildagi 4,5 mln nafardan 2025 yil yakunida 82,9 mln nafarga yetdi. Bu davrdagi o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati (82,9 / 4,5)^(1/8) – 1 ≈ 43,9 foizni tashkil etadi. Faqat 2025 yilning o‘zida foydalanuvchilar soni 52,9 mln dan 82,9 mln gacha, ya’ni 56,7 foizga oshgan. Foydalanuvchilar sonining aholi sonidan oshishi bir mijozning bir necha bankda hisobga ega ekanini ko‘rsatadi. Raqamli transformatsiyaning boshqa ko‘rsatkichlari 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval

Bank xizmatlari raqamli transformatsiyasining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2017 yil	2025 yil	O‘sish, marta	CAGR, %
Masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari, mln	4,5	82,9	18,4	43,9
Muomaladagi bank to‘lov kartalari, mln dona	19,2	68,3	3,6	17,2
Bankomatlar va infokiosklar, ming dona	5,6	40,1	7,1	27,8
Jismoniy shaxslarga kreditlar, trln so‘m	13,6	220,3	16,2	41,6
Depozitlar, trln so‘m	59,6	417,2	7,0	27,5
Bank hisobvarag‘iga ega kattalar ulushi, % (Global Findex)	44 (2021)	60,7 (2024)	+16,7 f.p.	–

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari; World Bank Global Findex Database (2021, 2025) asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadval ma’lumotlari raqamli infratuzilma va chakana bank xizmatlari an’anaviy ko‘rsatkichlarga nisbatan ancha tez o‘sayotganini ko‘rsatadi. Jismoniy shaxslarga kreditlar 16,2 baravar o‘sgan bo‘lib, bu raqamli kreditlash (onlayn mikroqarzlar, BNPL – «hozir sotib ol, keyin to‘la» xizmatlari) rivoji bilan bog‘liq. Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yilda mobil banking orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 60 foizga oshib, 646 trln so‘mga yetgan (ADB, 2026). Shu bilan birga, Jahon bankining Global Findex ma’lumotlariga ko‘ra, bank hisobvarag‘iga ega kattalar ulushi 2011 yildagi 23 foizdan 2024 yilda 60,7 foizga yetgan bo‘lsa-da, aholining qariyb 40 foizi hali ham rasmiy moliyaviy xizmatlardan chetda qolmoqda.

Raqamli transformatsiyaning sifat jihatini baholashda foydalanuvchilarning faollik darajasini hisobga olish muhim. Masalan, TBC Bank Uzbekistan 2025 yilda qariyb 23 mln ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchiga ega bo‘lgani holda, oylik faol foydalanuvchilar soni taxminan 6 mln nafarni tashkil etgan (Euromoney, 2026), ya’ni faollik koeffitsiyenti 26 foiz atrofida bo‘lgan. Bu ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni raqamli transformatsiyaning yetarli mezoni emasligini ko‘rsatadi.

4-jadval

Bank tizimining prudensial ko‘rsatkichlari (2026 yil 1 yanvar holatiga)

Ko‘rsatkichlar	Amaldagi qiymat	Bazel III bo‘yicha minimal talab	Baho
Regulyativ kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR), %	18,3	8,0 (+2,5 konservatsiya buferi)	Yuqori
Asosiy birinchi daraja kapitali (CET1), %	14,7	4,5 (+2,5 konservatsiya buferi)	Yuqori
Likvidlik qoplamasi koeffitsiyenti (LCR), %	208	100	Yuqori
Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR), %	120	100	Yetarli
Muammoli kreditlar ulushi (NPL), %	3,0	–	Mo‘’tadil
Salbiy ssenariyda CAR (2028 yil oxiri), %	6,8	8,0	Xavf zonasi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliyaviy barqarorlik sharhi (2025 yil yakunlari

bo‘yicha); BCBS (2017) asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, bank tizimining joriy kapital va likvidlik ko‘rsatkichlari Bazel III talablaridan sezilarli darajada yuqori. NPL ulushi 2021 yil avgustidagi 6,2 foizdan 2026 yil boshida 3,0 foizgacha pasaygan. Biroq Markaziy bankning stress-test natijalariga ko‘ra, salbiy makroiqtisodiy ssenariyda 2028 yil oxiriga kelib CET1 5,6 foizgacha, jami kapital yetarliligi esa 6,8 foizgacha pasayishi mumkin. Bu jadal kredit o‘sishi, ayniqsa, chakana segmentdagi o‘sish sharoitida risklarni boshqarish tizimini transformatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tijorat banklari transformatsiyasi turli yo‘nalishlarda notekis kechayotganini ko‘rsatadi. Raqamli xizmatlar va bank tizimi ko‘lami jadal o‘sayotgan bir paytda, mulkchilik tarkibi va korporativ boshqaruv sohasidagi o‘zgarishlar belgilangan mo‘ljallardan ortda qolmoqda. Tahlil asosida transformatsiya jarayonidagi to‘rtta asosiy «uzilish» (gap) ajratib ko‘rsatildi.

Birinchi – mulkchilik uzilishi. Davlat banklarining aktivlardagi ulushi 63,5 foizni, kreditlardagi ulushi 66,1 foizni tashkil etishi strategik mo‘ljaldan (40 %) 23,5 foiz punktga yuqori. La Porta va boshqalar (2002) hamda Berger va boshqalar (2009) tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, davlat banklarining ustunligi kredit resurslarining taqsimlanish samaradorligini pasaytiradi va raqobatni cheklaydi. Shuning uchun davlat banklarini xususiylashtirishdan oldin ularni tijorat asoslariga o‘tkazish, imtiyozli davlat dasturlarini alohida rivojlanish institutlariga o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi – resurs bazasi uzilishi. Kreditlar va depozitlar o‘rtasidagi nisbat 141,2 foizgacha pasaygan bo‘lsa-da, hali ham 100 foizdan sezilarli yuqori. Bu banklarning tashqi qarzlar va davlat resurslariga bog‘liqligini saqlab qolmoqda hamda valyuta va foiz risklarini oshiradi. Depozitlarning 32,1 foizlik o‘sishi ijobiy tendensiya bo‘lib, uni uzoq muddatli omonatlar va kapital bozori instrumentlari orqali mustahkamlash lozim.

Uchinchi – raqamli sifat uzilishi. Masofaviy xizmatlar foydalanuvchilari soni 82,9 mln nafarga yetganiga qaramay, foydalanuvchilarning faollik darajasi va moliyaviy xizmatlarning chuqurligi past qolmoqda. Verhoef va boshqalar (2021) tasnifiga ko‘ra, ko‘plab banklar hali «raqamlashtirish» va «raqamli jarayonlar» bosqichida bo‘lib, biznes-modelning to‘liq raqamli transformatsiyasi asosan ayrim xususiy raqamli banklarda kuzatilmoqda. Bu BCBS (2018) ssenariylaridagi «yaxshilangan bank» modeliga mos keladi.

To‘rtinchi – risk uzilishi. Chakana kreditlashning jadal o‘sishi va raqamli kanallar orqali kredit berishning soddalashuvi aholining qarz yukini oshirish va kredit riskini to‘planish xavfini tug‘diradi. Stress-test natijalarida salbiy ssenariyda kapital yetarliligi minimal talabdan pasayishi ehtimoli transformatsiya jarayonida risk-menejment tizimini, jumladan, kredit skoringi, kiberxavfsizlik va operatsion barqarorlik tizimlarini takomillashtirish zaruratini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, transformatsiyani baholash va boshqarish uchun 5-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar tizimi va takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etiladi.

5-jadval

Bank transformatsiyasining integral indeksi (BTII) tarkibi va takomillashtirish yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Vazn (w)	Baholash ko‘rsatkichlari	Takomillashtirish choralari
Mulkchilik va raqobat	0,25	Davlat banklari ulushi (aktivlar, kreditlar); HHI; xorijiy kapitalli banklar ulushi	Davlat banklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish; davlat dasturlarini rivojlanish institutlariga o‘tkazish; strategik xorijiy investorlarni jalb qilish
Raqamli transformatsiya	0,25	Masofaviy xizmatlar faol foydalanuvchilari ulushi;	Ochiq banking (Open Banking) va API standartlarini joriy etish; raqamli

		raqamli kanallar orqali kreditlar ulushi; Global Findex ko‘rsatkichi	identifikatsiya; faol foydalanuvchilar bo‘yicha hisobot
Vositachilik samaradorligi	0,25	Kredit/depozit nisbati; operatsion xarajatlar/daromadlar (CIR); foiz marjasi	Depozit bazasini kengaytirish; jarayonlarni avtomatlashtirish; filial tarmog‘ini optimallashtirish
Prudensial barqarorlik	0,25	CAR, CET1, LCR, NSFR; NPL; stress-test natijalari	ICAAP/ILAAP tizimini mustahkamlash; makroprudensial cheklovlar (DSTI); kiberrisk va operatsion barqarorlik standartlari

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi. Vaznlar dastlabki holatda teng qabul qilindi; ularni ekspertlar so‘rovi yoki iyerarxiyalarni tahlil qilish usuli (AHP) asosida aniqlashtirish mumkin.

Taklif etilayotgan BTII har bir bank va butun bank tizimi bo‘yicha transformatsiya darajasini yillik asosda kuzatish, banklar o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazish hamda strategik mo‘ljallarning bajarilishini monitoring qilish imkonini beradi. Indeksni qo‘llashda ma’lumotlarning ochiqligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, buning uchun banklar tomonidan raqamli xizmatlarning faol foydalanuvchilari va operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlarini majburiy oshkor qilish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Tahlil ikkilamchi rasmiy ma’lumotlarga asoslangan bo‘lib, ayrim ko‘rsatkichlar turli sanalar va ta’riflar bo‘yicha e’lon qilingan. Shuningdek, BTII vaznlari ekspert baholari asosida aniqlashtirilmagan. Kelgusi tadqiqotlarda banklar kesimidagi panel ma’lumotlari asosida transformatsiya darajasi bilan bank samaradorligi (ROA, ROE, CIR) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash jarayoni muhim miqdoriy natijalarga erishganini, biroq sifat jihatidan hali yakunlanmaganini ko‘rsatdi. 2021–2025 yillarda bank tizimi aktivlari yiliga o‘rtacha 20,4 foizga o‘sib, 2026 yil avgustida 1 kvadrillion so‘mdan oshdi, masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari 82,9 mln nafarga yetdi, kapital va likvidlik ko‘rsatkichlari Bazel III talablaridan yuqori darajada saqlandi. Shu bilan birga, davlat banklarining ustunligi, resurs bazasining torligi, raqamli xizmatlardan foydalanish sifatining pastligi va salbiy ssenariylardagi kapital zaifligi transformatsiya jarayonini takomillashtirishni talab etmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, bank tizimini isloh qilishning 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan yangi bosqichida davlat banklarini xususiylashtirishning aniq jadvalini belgilash, davlatning imtiyozli kredit dasturlarini tijorat banklaridan ixtisoslashgan rivojlanish institutlariga o‘tkazish hamda strategik xorijiy investorlarni jalb etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, banklar transformatsiyasi darajasini muntazam monitoring qilish uchun taklif etilgan bank transformatsiyasining integral indeksi (BTII)ni Markaziy bank va O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi amaliyotiga joriy etish, uning natijalarini yillik asosda e’lon qilish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, raqamli transformatsiyani «foydalanuvchilar soni»dan «faol foydalanish sifati»ga yo‘naltirish uchun ochiq banking (Open Banking) standartlarini joriy etish, banklar tomonidan faol raqamli mijozlar ulushini majburiy oshkor qilish hamda raqamli identifikatsiya tizimini rivojlantirish zarur.

To‘rtinchidan, resurs bazasini mustahkamlash maqsadida uzoq muddatli depozitlarni rag‘batlantirish, banklarning obligatsiyalar emissiyasini kengaytirish va depozitlarni kafolatlash tizimining ishonchliligini oshirish orqali kredit/depozit nisbatini bosqichma-bosqich 120 foizdan pastga tushirish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, jadal chakana kreditlash sharoitida risklarni cheklash uchun qarzga xizmat

ko‘rsatish yuki (DSTI) bo‘yicha makroprudensial cheklovlarni takomillashtirish, banklarda ICAAP/ILAAP jarayonlarini va stress-test amaliyotini mustahkamlash hamda kiberxavfsizlik va operatsion barqarorlik bo‘yicha BCBS tamoyillarini joriy etish lozim.

Oltinchidan, transformatsiya jarayonining inson kapitali bilan ta’minlanishini oshirish maqsadida banklar xodimlarini ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik va raqamli mahsulotlarni boshqarish yo‘nalishlarida qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash faqat texnologik yangilanish emas, balki mulkchilik, boshqaruv, biznes-model va risk-menejment tizimlarini qamrab oluvchi kompleks jarayondir. Ushbu jarayonni izchil va muvozanatli amalga oshirish bank tizimining raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotni moliyalashtirish salohiyatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi «2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-5992-son Farmoni. – www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2026). Moliyaviy barqarorlik sharhi: 2025 yil yakunlari bo‘yicha. – Toshkent: Markaziy bank.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Yillik hisobot – 2022. – Toshkent: Markaziy bank.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining konsolidatsiyalashgan balansi; Tijorat banklarining asosiy ko‘rsatkichlari (01.01.2024, 01.01.2025, 01.05.2026 holatiga); Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni. – www.cbu.uz/uz/statistics.

5. Asian Development Bank (2026). How Uzbekistan Can Turn Digital Finance Into Savings and Financial Security. ADB Blog. – Manila: ADB.

6. Basel Committee on Banking Supervision (2017). Basel III: Finalising post-crisis reforms. – Basel: Bank for International Settlements.

7. Basel Committee on Banking Supervision (2018). Sound Practices: Implications of fintech developments for banks and bank supervisors. – Basel: Bank for International Settlements.

8. Berger, A.N., Hasan, I., Zhou, M. (2009). Bank ownership and efficiency in China: What will happen in the world's largest nation? // Journal of Banking & Finance, 33(1), pp. 113–130.

9. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, DC: World Bank.

10. Euromoney (2026). Central Asia's best digital bank 2026: TBC Uzbekistan. – London: Euromoney.

11. International Monetary Fund (2025). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation – Staff Report. IMF Country Report. – Washington, DC: IMF.

12. King, B. (2018). Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. – Chichester: Wiley.

13. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A. (2002). Government ownership of banks // The Journal of Finance, 57(1), pp. 265–301.

14. Malikova, D.M. (2026). Structural transformation and prudential resilience of the banking sector of Uzbekistan // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 4(1), pp. 21–29. DOI: 10.5281/zenodo.21298492.

15. Philippon, T. (2016). The FinTech opportunity. NBER Working Paper No. 22476. – Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research.